

## BOSHLANG'ICH SINFLARDA ONA TILI FANIDA LOYIHAVIY DARSLARNI TASHKILLASH METODIKASI

**Annotatsiya.** Maqolada boshlang'ich sinflarda loyiha ishlarini tashkil etishning nazariy asoslari va amaliy mexanizmlari yoritilgan. Loyiha usulining o'quvchilarning mustaqil fikrlash, ijodkorlik va amaliy ko'nikmalarini rivojlantirishdagi o'rni tahlil qilinib, loyiha ishi namunalari asosida metodik tavsiyalar keltirilgan.

**Kalit so'zlar:** boshlang'ich ta'lim, loyiha ishlari, metodika, qobiliyat, ko'nikma, ijodkorlik, hamkorlik, tavsiya.

## МЕТОДИКА ОРГАНИЗАЦИИ ПРОЕКТНЫХ УРОКОВ ПО ПРЕДМЕТУ «РОДНОЙ ЯЗЫК» В НАЧАЛЬНОЙ ШКОЛЕ

**Аннотация.** В статье рассматриваются теоретические основы и практические механизмы организации проектной деятельности в начальных классах. Проанализирована роль метода проектов в развитии самостоятельного мышления, творческих способностей и практических навыков учащихся, а также представлены методические рекомендации на примерах проектной деятельности.

**Ключевые слова:** начальное образование, проектная работа, методика, умения, навыки, творчество, сотрудничество, рекомендация.

## THE METHODOLOGY OF ORGANIZING PROJECT LESSONS ON THE SUBJECT OF "MOTHER TONGUE" IN ELEMENTARY SCHOOL

**Annotation.** The article examines the theoretical foundations and practical mechanisms for organizing project activities in elementary grades. The role of the project method in developing independent thinking, creative abilities and practical skills of students is analyzed, and methodological recommendations are presented using examples of project activities.


**Key words:** primary education, project work, methodology, skills, abilities, creativity, cooperation, recommendation.

Zamonaviy ta'lim jarayonida o'quvchilarning mustaqil fikrlash va amaliy faoliyatga tayyorlash maqsadida interaktiv va faol o'qitish metodlarga alohida e'tibor qaratilmoqda. Shu jumladan, loyiha usuli boshlang'ich ta'lim tizimida ham keng qo'llanilib, ta'lim oluvchilarning qobiliyatlarini rivojlantirish, ijodiy yondashuvni shakllantirish va muammoli vaziyatlarni hal qilishga tayyorlashda muhim o'rin tutadi. Hozirda o'quv fanlarini nazariylashtirgan holda o'qitishga, o'quvchilarga tayyor o'quv materiallarini berishga asoslangan yondashishdan ma'lum darajada voz kechilib, o'quvchining kundalik hayotida fandan olgan bilimlarini eta olish salohiyatini shakllantirish va uni rivojlantirishga erishish, o'quvchilarning mustaqil hamda ijodiy fikrlash ko'nikmalarini namoyon qilish va faollashtirishga e'tiborni kuchaytirish lozim bo'ladi. Maktabda boshlang'ich sinfdan boshlab loyiha ishlarini bajarish ko'nikmalarini shakllantirish o'quvchilarning yuqori sinfdan talab etiladigan ko'nikma va kompetentisalarini yuqori sinfdan talab etiladigan ko'nikma va kompetensiyalarini yuqori darajada rivojlantirishni ta'minlaydi. Boshlang'ich sinflarda loyiha ishlarini tashkil etish nafaqat o'quvchilarning bilimlarini boyitadi, balki ularning qobiliyatlarini ochib berish, mas'uliyat va hamkorlik ruhini shakllantirishga xizmat qiladi. Har bir loyiha o'quvchilarning qiziqishlari va qobiliyatlarini hisobga olib tayyorlansa, ta'lim jarayoni yanada mazmunli va samarali bo'ladi. Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda, boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun chop etilgan ona til darsliklariga

238 kiritilgan Ijodkorlik soati va Loyiha ishi moduli uchun namunaviy loyiha ishi keltirib o'tmoqchimiz.



Mavzu; Sog'lom ovqatlanish – salomatlik garovi.  
Integratsiyalashgan fanlar;



Maqsad; O'zlashtirilgan bilim va mahoratni kundalik hayotda tatbiq etish.

Muammoni bartaraf etish uchun topshiriqlar.


1.66-mashqni induvidual loyiha ishi sifatida o'quvchilar mustaqil bajaradilar. Bunda ular topshiriqni quyidagicha bajarishlari mumkin .

Mashq shartini bajartirishdan avval o'quvchilarga sog'lom turmush tarzi uchun kerak bo'ladigan oziq-ovqat mahsulotlari haqida ma'lumot berib o'tiladi.


Sog'lom ovqatlanish bolalarning yaxshi rivojlanishi va muvaffaqiyatlari uchun juda muhim hisoblanadi. Nonushta uchun tuxum, sut, mevalar, yong'oq va bodomlar eng yaxshi mahsulotlar sanaladi. Tushlikda esa organizm uchun juda zarur bo'lgan oqsillar va uglevodlarni o'z ichiga olgan sho'rvalar, go'sht, baliq, sabzavotlar va baliq eng yaxshi tanlovlardan hisoblanadi. Kechki ovqat uchun yengil hazm bo'ladigan sut mahsulotlari, sabzavotlar, baliq kabi oziq-ovqatlar bolalar salomatligi uchun juda ham foydalidir.



66-mashqda berilgan rasmiy jadvalni berilgan ma'lumotlardan foydalanib, nonushta, tushlik, yarim kechki ovqat va kechki ovqat uchun kerakli oziq-ovqatlar nomini yozib chiqishlari kerak. Ularga quyidagi ko'rinishda tarqatmalardan ham foydalanish mumkin.



67-mashq shartida berilgan „Raqamli joylashuv“ ta'limiy o'yini ijtimoiy loyiha sifatida bajarishadilar. Sinf o'quvchilari kichik guruhlariga bo'linib olinishlari maqsadga muvofiq. Guruhlarda topshiriq sharti bajaritilsa, o'quvchilarda nutqiy, tahliliy, ijodiy va tilshunoslik kompetensiyalari yanada rivojlanishiga asosiy omil sifatida xizmat qiladi. Bajarish tartibi quyidagilardan iborat. Guruhlarga quyidagi didaktik tarqatma tarqatib beriladi. Qatnashchilar esa sabzavotlar orqasiga yozilgan so'zlardan mazmunli gap tuzadilar.




Natijada raqamli joylashuv ta'limiy o'yini orqali foydali oзуqalarga boy savatimiz yanada kerakli mahsulotlar boyiydi. O'yin so'ngida esa **maktab oshxonasida ishlaydigan qo'li shirin oshpazlarimiz bizlar uchun doim mazali ovqat tayyorlaydilar** gapi hosil bo'ladi. Oshxonasida so'zini kelishik qo'shimchalriga ajratib tahlil qilib quyidagi maxsus topshiriq bajarish qog'oziga yozib keladilar.




Bajarilgan ishlar guruh a'zolari tomonidan taqdimot qilib beriladi.

Rivojlantiruvchi ko'nikmalar va natijalar.

Foydali va zararli mahsulotlarni iste'mol qilish natijasida inson salomatligida bo'ladigan o'zgarishlar o'quvchilar bilan birgalikda tahlil qilinadi va xulosa chiqarilib amaliyotga tatbiq etish uqtiriladi.





Ushbu rasmlarni o'quvchilar loyiha mavzusi yuzasidan olgan bilimlari yuzasidan tahlil qiladilar. Bu orqali ta'lim oluvchilarning idrok etishko'nikmalarini, o'z bilimlarini mustaqil yaratish malakasini, olgan axborotlarni tahlil qilish, farazlarni ilgari surishni va tanqidiy fikrlashni rivojlantirishga erishish usullarini bilishni nazarda tutadi.

Loyiha qatnashchilari tashkillangan loyihaviy dars uchun o'z fikr mulohazalarini quyidagicha mavzu mazmuniga mos kreativ tarzda ifodalaydilar.



68-mashq har bir o'quvchi uchun uyga vazifa qilib beriladi.

Xulosa o'rnida shuni ayta olamanki, boshlang'ich sinflarda loyiha ishini tashkil etish, faol kognitiv faoliyat orqali o'zini o'zi rivojlantirish qobiliyati, ya'ni yangi bilim va ko'nikmalarni muvaffaqiyatli egallash, ularni ta'lim va hayotiy vaziyatlarda qo'llay olish ko'nikma, malaka va kompetensiyalarini shakllantirish va rivojlantirishni ta'minlaydi. Buning uchun loyiha ishlarimavzusi bankini shakllantirishimiz, rivojlantirishimiz va loyiha ishlari tanlovlarini amalga oshirish talab etiladi.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Loyihaga asoslangan ta'lim: o'quv qo'llanma/ D. Davidova Toshkent: Gofur Gulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2024-yil, 6-bet

2. International scientific and practical conference "modern approaches in teaching exact and natural sciences: challenges and solutions", may 30, 2025 „Boshlang'ich sinflarda loyiha ishlarini tashkil”// Mirzoxidova Laylo Baxtiyorovna. A. Avloniy nomidagi pedagogik mahorat milliy instituti Boshlang'ich ta'lim va filologiya fanlari metodikasi kafedrasida v.b. dotsenti; Turgunbayeva Tajigul Asilbekovna. A. Avloniy nomidagi pedagogik mahorat milliy instituti Boshlang'ich ta'lim va filologiya fanlari metodikasi kafedrasida v.b. dotsenti

3. Sh. Q. Mardonov va boshqalar. O'quvchilarning dizayn ijodkorligini shakllantirish, Toshkent; „Sano-standart” 2012.-102-bet

4. Baynazarova D.D., Toirova M.E. Ona tili. Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 4-sinfi uchun darslik. II-qism. /-Toshkent; „Novda Edutainment” 2023.-88 b.